

Mustaqillik kuni munosabati bilan aviakompaniya xodimlari mukofotlandi

2024 27 Avgust

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan, mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Uzbekistan Airways xodimlari quyidagi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi:

– **Xudaykulov Shuxrat Shavkatovich** – “Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruv raisi “Shuhrat” medali bilan mukofotlandi.

– **Nutfullayev Amrillo Xayrullayevich** – Parvoz xizmati departamentining “A-320” 3-parvoz guruhi sardori o‘rinbosari “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fuqaro aviatsiyasi xodimi” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi.

– **Turakulov Tolibjon Axrorovich** – “Uzbekistan Airways Technics” mas’uliyati cheklangan jamiyatining g‘arbda ishlab chiqarilgan havo kemalarga texnik xizmat ko‘rsatish markazi sex smena boshlig‘i “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

Har biringizni yuksak davlat mukofoti bilan tabriklaymiz! Mustahkam sog‘liq, farovonlik va O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasini rivojlantirish yo‘lida yanada ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.